QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 10-son)
PEDAGOGIKA
PEDAGOGY
https://doi.org/10.70728/c.series.ped.v08.i10.170

MASHRAB TARJIMAI HOLINI O‘RGATISHDA FANLARARO INTEGRATSIYADAN FOYDALANISH

Abdullayev Komiljon Abdug‘anievich,
pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent.
Namangan davlat universiteti
Tel: +99890 214 77 33 e.mail: komiljon.abdullayev.1961@mail.ru

Annotatsiya: Maqolada Mashrab tarjimai holini o‘rgatishda fanlararo integratsiya (tarix, tasavvuf, tasviriy san’at, musiqa, geografiya, axborot kommunikatsion vositalari) dan foydalanishning o‘rni va samarali usullari ko‘p yillik amaliy tajribalar asosida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Mashrab, tarjimai hol, fanlararo integratsiya, tushunilishi qiyin so‘z va iboralar, kishi nomlari, joy nomlari, tarix, tasviriy san’at, musiqa, geografiya, axborot kommunikatsion vositalari, sharh, rasm-slayd.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ИНТЕГРАЦИИ В ОБУЧЕНИИ БИОГРАФИИ МАШРАБА

Аннотация: В статье описаны роль и эффективные методы использования междисциплинарной интеграции (история, мистика, изобразительное искусство, музыка, география, информационные и коммуникационные медиа) в преподавании биографии Машраба на основе многолетнего практического опыта.

Ключевые слова: Машраб, биография, междисциплинарная интеграция, сложные слова и фразы, имена людей, географические названия, история, изобразительное искусство, музыка, география, СМИ, комментарий, фото-слайд.

USE OF INTERDISCIPLINARY INTEGRATION IN TRAINING BIOGRAPHY MASHRAB

Resume: The article describes the role and effective methods of using interdisciplinary integration (history, mysticism, fine arts, music, geography, information and communication media) in teaching the biography of Mashrab based on many years of practical experience.

Key words: Mashrab, biography, interdisciplinary integration, compound words and phrases, people's names, place names, history, visual arts, music, geography, media, commentary, photo slide.

KIRISH. Hayratomuz xislatlar egasi Boborahim Mashrab zamonasining yetuk donishmandi, ko‘ngli pok, har tomonlama komil inson, xalqning yurak dardlarini, orzu-umidlarini, istak va intilishlarini kuylovchi xalqchil shoir, yuksak iste’dod egasi sifatida ma’lum va mashhurdir.

Akademik litseylarning ijtimoiy-gumanitar fanlar va xorijiy filologiya yo‘nalishidagi adabiyotdan chuqurlashtirilgan o‘quv dasturi asosida tuzilgan rejada shoir hayoti va ijodi, adabiy merosini o‘rganish uchun 4 soat vaqt ajratilgan bo‘lib, uni quyidagicha taqsimlashni maqsadga muvofiq deb topdik:

1. Boborahim Mashrabning hayoti, avliyolik xislatlarining namoyon bo‘lishi va sarguzashtlari – 1 soat.
2. Shoir adabiy merosi,uning g‘azallari g‘oya va mavzu ko‘lami, ruhi, uslubi, badiiy xususiyatlar – 2 soat.
3. “Qissai Mashrab” asari haqida – 1 soat.

Ko‘p yillik tajriba va kuzatishlarimizga asoslanib, yuqorida ta’kidlangan mavzularni o‘rgatish jarayonida fanlararo integratsiyadan, xususan, “Gumanitar bilimlarning havosi” – tarix, “Inson qalbini tashqi olam bilan bog‘lovchi nafis, mustahkam va qonuniy ko‘prik” – tasviriy san’at, “San’atning Fotima va Zuhrolari” – lirika va musiqa, inson qalbini o‘ziga rom etuvchi tarixiy-badiiy asarlar, tasavvuf tarixi, ona tili, geografiya, axborot-kommunikatsion texnologiyalari fani materiallaridan dars va darsdan tashqari tadbirlar jarayonida foydalanish haqidagi fikrlarimizni o‘rtoqlashmoqchimiz.

Dars videoko‘zgu orqali interaktiv doskaga tushirilgan shoir portreti asosidagi suhbat bilan boshlanadi. Portretda Mashrab xarakterining asosiy belgilari (qalandarona) yorqin aks etgani va bu rasmga oid suhbat hamma mashg‘ulotlar davomida uning qiyofasini o‘quvchilar tasavvurida tiklashga yordam berishi hisobga olingan. Boborahim (Rahimbobo) Mashrab 1640 (hijriy 1050)-yilda Namanganda hunarmad-bo‘zchi, kosib Vali bobo va bibi Salimalar oilasida poklik, halollikning timsoli sifatida dunyoga keldi.

“Bir kuni onalari ikki to‘pa ip olib nafaqa uchun bozorga bordilar, deyiladi “Qissai Mashrab”da. – Ko‘rdilarki, ikki dona uzum yerga tushubdur, ani yerdin olib og‘zilariga soldilar. U yerda bir baqqol uzum sotib turur erdi. Mashrabning onalari hanuz ikki qadam qo‘yg‘onlari yo‘q erdiki, qorinlaridin ovoz keldi: “Ey ano, Xudodan qo‘rqmay, maxluqdin uyolmay, kishining haqini nima yedingiz? Agar shul uzum egasini rozi qilmasangiz, qorningizdan g‘oyib bo‘lib ketarmen”, – dedilar [13, 8.]. Demak, hali tug‘ilmagan Mashrab kishi haqidan, haromdan hazar qiladi. Bu rivoyatni dili pok, vijdoni pok, niyati halol, imoni butun ulug‘ inson hayotining debochasi deb atash mumkin. Shoirning butun hayot yo‘li mana shu qutlug‘ debochaning davomi va takomilidan iborat ekanligini o‘quvchilar ongiga singdirish shoir hayoti va ijodini o‘rgatish haqidagi darslarning asosiy maqsadidir.

Xalq orasidada Shoh Mashrab, Devona Mashrab, Valiy Qalandar (Mahdiy, Zinda, Rindiy, Umam taxalluslari ham bor) nomlari bilan tanilgan Boborahimning o‘ta ziyrak yoshligi, topqir va zukkoligi bilan ustozi Mulla bozor oxundni lol qoldirishi, tasavvufiy bilimlarini oshirish uchun Qashqarga, Ofoq xoja huzuriga borishi va u yerdagi yetti yillik sinov va chiniqishlar, keyingi umri davomidagi 40 yillik darbadarona (iqtidorli o‘quvchilar bilan

hamkorlikda to‘plangan shu davrlarni aks ettiruvchi rasmlar to‘plami interaktiv doska orqali namoyish etib turiladi) sarguzashtlari (Qashqar – Yorkent – Namangan – Xo‘jand – Toshkent – Samarqand – Buxoro – Hindiston – Afg‘oniston – Sheroz – Suriya – Shom – Rum – Sudan – Yaman – G‘ulja ...), qazo hukmiga muvofiq, o‘z ajalini izlab Balx shahriga borishi va 1711 (hijriy 1123) -yilda Mahmud Qatog‘on hukmi bilan dorga osib o‘ldirilishi haqida ma’ruza qilinar ekan, o‘quvchilar uchun tushunilishi qiyin, sharhlash zarur bo‘lgan atamalar, kishi va joy nomlarining uchrashi mavzuning yanada chuqurroq, tushunarliroq yoritilishida qiyinchilik tug‘dirishining guvohi bo‘ldik.

Ana shu muammoning oldini olish, o‘qituvchi va o‘quvchilarimizning ishini biroz bo‘lsa-da, yengillashtirish maqsadida tarix, tasavvuf, ona tili, geografiya fanlaridan egallangan bilimlar va “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” [12, 704], “Islom ensiklopediyasi” [5, 313] ma’lumotlariga asoslanib, ularning asosiy qismini sharhlashga baholi qudrat harakat qildik:

I. Tushunilishi qiyin so‘z va atamalar:

1. Mashrab so‘zi shoirning taxallusi bo‘lib, “xulq, tabiat, odat, maslakdosh” degan ma’nolarni bildiradi.

2. Qalandar – dunyoning barcha huzur-halovatiyu aysh-ishratidan, orzu-havasidan voz kechib, Haqni izlab kezib yuruvchi so‘fiy siyrat darveshlar. Ular kiyinishlari, xatti-harakatlari, turish-turmushlari bilan devonatabiat kishilardek taassurot qoldirganlar.

3. Devona – bu so‘zni hozirgi tilimizdagiday savdoyi kishi emas, ruhi - joni ishq ila band bo‘lgan hamda so‘fiyona hayot yo‘liga kirgan, Alloh vasliga yetishish maqsadida o‘zligini yo‘qotgan kishi ma’nosida tushunish kerak.

4. Avliyo – insonlar orasida ruhini haddi a’losida kamolga yetkargan kishilar, qalbi pok, fe’l-atvordagi yomonliklardan batamom forig‘ bo‘lgan, shu tariqa, hatto karomatlar ko‘rsatish darajasiga yetgan, yuksak isoniy maqomga erishgan shaxslar. Avliyolar – islom olamida paydo bo‘lib, inson ma’naviyatining eng mo‘tabar falsafiy ta’limotiga aylangan tasavvufni qattiq tutgan, unga qat’iy amal qilgan, uni rivojlantirgan, shu yo‘lda odamlarni o‘zlariga ergashtirgan piri murshidlardir.

5. Mahdiy – shia mazhabidagi musulmonlar oxir zamonda Yer yuzi xalqini to‘g‘ri yo‘lga, hidoyatga boshlovchi xaloskor – Mahdiy keladi, deb ishonadilar. Abu Sulaymon Kufiyning “Sazovor ul-aqolim” kitobida aytilishicha, Bag‘dod yaqinidagi “Samro” masjidi Jomesi oldida bir g‘or bo‘lib, shialar e’tiqodicha, imom Mahdiy o‘sha joydan chiqishi kerak emish. Shu bois, juma kunlari bir saman otni umid bilan g‘or og‘zida tutib turar ekanlar (Davlatshoh Samarqandiy).

6. Zinda – tirik, umrboqiy.

7. Tasavvuf – insonni ruhan kamolga yetkazish nazariyasi. Tasavvuf – xolislik ta’limi. Tasavvuf – soflik. Tasavvuf – riyosizlik “taqviy” si. Tasavvuf, umuman olganda, insonni ruhan kamolga yetkazish nazariyasi edi. Bu nazariyaga ko‘ra, bu olamni paydo qilishdan ko‘zlangan bosh maqsad ham, aslida, inson ekanmi, demak, inson Tangrining bu muruvvatiga shukronalar aytib, o‘zini batamom Allohga bag‘ishlashi, buning uchun esa o‘zini unga loyiq darajada poklashi – kamolga yetkazishi kerak. Ana shunday o‘zini oliy maqsadga chog‘lagan, jismini unutib, ruhini Ollohga yetar darajada o‘stirgan, o‘zini Allohga yetar darajada poklagan, jism

ehtiyojlari tufayli paydo bo‘ladigan jamiki insoniy illatlardan forig‘ qilgan kishilar insoni komil bo‘lganlar.

8. Shariat – islom dinining yo‘l-yo‘riqlari, qonun-qoidalari; tasavvufda – Haqni tanlash yo‘lidagi birinchi bosqich.

9. Tariqat – yo‘l, maslak, mazhab; tasavvufda - Haqqa erishish yo‘lidagi ikkinchi daraja.

10. Ma’rifat – ilmu donish, fahm-farosat, dunyoni tanish; tasavvufda – so‘fiylik ta’limotidagi to‘rt darajadan biri.

11. Haqiqat – borliqning asliyati, qandayligi; mohiyat, rostlik, to‘g‘rilik; tasavvufda – Xudoni izlash, Allohni kashf etish, vaslga erishish ilmi.

12. So‘fiy – tasavvuf tariqatiga mansub shaxs, murid.

13. Xirqa (arabchada – yamoq, quroq) – junli matodan tikilgan ustki kiyim. Asosan, so‘fiylar kiygan. Xirqa, odatda, so‘fiylikda pirdan shogirdga o‘tgan, uzoq vaqt kiyilgani sababli u ko‘pincha eskirgan, quroq va yamoq bo‘lgan. Xirqa o‘zbeklar orasida janda deb atalgan.

14. Pir (forschada – keksa, qari) – so‘fiylik an’anasida tariqatlarning oliy rahnamolari yoki obro‘li rahnamolari. Shuningdek, har bir murid o‘z murshidini ham Payg‘ambar deb atagan. Aholi orasida “Payg‘ambar” tushunchasi avliyo, ma’lum bir hunarning asoschisi ma’nosida ham ishlatiladi.

15. Murid (arabchada – ergashuvchi) – ixtiyoriy ravishda izdan boruvchi, shogird. Tasavvufda tariqat murshidlaridan dars oluvchi shogird ma’nosida ishlatiladi.

16. Komil inson – tasavvuf falsafasining asosiy tushunchalaridan biri. Har jihatdan yetuk kishi. Axloqiy jihatdan oliy poklikka erishgan, borliq va Allohni anglashda to‘liq bilimga ega bo‘lgan va natijada, Haqqa yetishgan (yoki Qur’on oyatlarining tub mohiyatini tushunadigan) inson. Tasavvuf ta’limotiga ko‘ra, Alloh Komil insonda o‘zining barcha xislat va alomatlarini bamisoli ko‘zguda ko‘rgandek ko‘rib turadi.

17. Payg‘ambar (forschada – xabar keltiruvchi) – Islom aqidasiga ko‘ra, Alloh bilan uning bandalari o‘rtasidagi elchi;

18. Farishta – Payg‘ambar bilan Alloh o‘rtasida elchilik qiluvchi farishtaning nomi Jabroildir.

19. Muhammad (s.a.v.), Ahmad ibn Abdulloh (570-571-632) – islom dini payg‘ambari va musulmonlarning birinchi jamoasi asoschisi. Musulmonlar e’tiqodiga ko‘ra, Allohning oxirgi payg‘ambari va uning elchisi.

20. Xalil – do‘st, yor; Xalilulloh – Ibrohim payg‘ambarning laqabi. Diniy rivoyatlarga ko‘ra, Namrud Ibrohimni katta gulxanga tashlaganida, olov gulzorga aylanib qolgan.

21. Ka’ba – jahon musulmonlari sajdagohi, Makka shahrida joylashgan ziyoratgoh.

22. Haj – Makkani ziyorat qilish.

23. Xizr (a.s.) (Xizr, Hazrati Xizir, Xizir buva, Xizr-Ilyos) – Qur’onda Allohning quli nomi bilan tilga olingan taqvodor zot.

24. Namrud – afsonaviy yovuzlik timsoli.

25. Horut va Morut – osmondan yerga haydalgan ikki farishta.

I. Kishi nomlari:

1. Mansuri Halloj – X asrda yashagan mashhur so‘fiy. U “Anal - Haq” - “Men – Haq, ya’ni Xudoman” degani uchun ruhoniylar fatvosi bilan dorga osib o‘ldirilgan.

2. Xoja Abdulloh G‘ijduvoniy (vafoti yili: 1220) – tasavvufdagi Xojalar mazhabining asoschilaridan, Xoja Ahmad Yassaviy bilan birgalikda Yusuf Hamadoniy sulukida tahsil olgan buyuk mutasavvuf, Bahovuddin Naqshbandiyning ustozlaridan biri.

3. Rumiy – Jalollidin Muhammad ibn Bahouddin Muhammad al-Balxiy (1207-1273) mashhur shoir, mutafakkir. Balx (Shimoliy Afg‘oniston) da tug‘ilgan. Rumiyning 25500 baytdan ortiq “Masnaviyi ma’naviy” asari “Tasavvufning chinakam qomusi” deb tan olingan.

4. Ibrohim Adham – tarki dunyo qilgan podsho. Ishq yo‘lida hamma narsadan voz kechgan shaxs, so‘fiy. 776-783-yillar orasida vafot etgan.

5. So‘fi Olloyor – tasvvuf ta’limoti vakili, faylasuf alloma.

6. Mavlaviy Sharif – Mashrab Buxoroda “Mushkoti Sharif” tahsilini shu kishidan olgan.

7. Mullo Bozor oxund – buxorolik. Bahodir eshonning muridi bo‘lg‘on Oxund mullo Bozor namanganlik bo‘lib, Farg‘onada mashhur va ma’lum bir mulla bo‘lg‘on, qabri bu kun Namangan shahrindadir. Majzubning “Tazkiratul avliyo”sida ham mullo Bozor oxund haqida ma’lumot bor. (Ilovada ko‘rsatilgan 1993-yili Namanganda tashkil etilgan Mulla Bozor oxund majmuasi rasmi ko‘rsatiladi va izohlanadi).

8. Ofoq xoja – eshon,tariqat piri bo‘lmish bilan birga Qoshg‘arda podshoh o‘rnida ham hukm surgan. U mashhur Mahdumi A’zam Kosoniy avlodidan bo‘lib, 1695-yilda vafot etgan.

9. Muhammad Siddiq Rushdiy – “Tazkirat-ul avliyoyi turkiy” kitobi muallifi.

10. Ofoq – Iyla hukmdori Kuntojixonning qizi.

11. Oqbo‘tabiy – Xo‘jand hokimi, Mashrabning ixlosmandi.

12. Mahmud Qatog‘on (taxminan, XVII asrning I yarmi XVIII asrning boshi) – Ashtarxoniylar davridagi nufuzli amaldor, otaliq . Toxariston (1683 yildan), Balx va Badaxshon hokimi (1688), Mahmud Qatog‘on XVII asrning I yarmidagi ijtimoiy-siyosiy hayotda muhim rol o‘ynagan.

III. Joy nomlari:

1. Qashqar – Hozirgi Xitoy Xalq Respublikasining Uyg‘ur avtonom o‘lkasi. O‘rta asrlarda Sharqiy Turkiston hisoblangan. Uyg‘urlar yurti.

2. Iyla (Ili, Ilo, yoki Ila) – hozirgi Qozog‘iston hududidagi shahar.

3. Xo‘tan – Sharqiy Turkiston (Qashqar viloyati)dagi qadimiy shahar. Uning atrofida dasht bo‘lishi mumkin, lekin lug‘atlarda bu so‘z shahar nomi sifatida talqin qilinadi.

4. Yorkent (qadimiy nomi Sakarao‘l, xitoycha Shache) – Xitoyning Sinsyan muxtor rayonidagi shahar. Qashqar viloyatining Yorkent tumani markazi (1980 yilgacha Qashqar viloyati markazi). Taklamakon cho‘lining g‘arbiy qismida, Yorkent daryosining o‘ng sohilida, 20 metr balandlikda joylashgan. Aholisi qariyib 547,5 ming kishi, asosan, uyg‘urlar, qisman o‘zbeklar, xitoylar ham yashaydi.

5. Balx – Shimoliy Afg‘onistonda joylashgan shahar.

6. Xo‘jand – Hozirgi Tojikiston shimolidagi ko‘hna shahar.

7. Makka – Muhammad payg‘ambar tug‘ilgan shahar. U jahon musulmonlarining ziyoratgohiga aylangan.

8. Qobadiyon (Quvodiyon) – Tojikistonda Kofirnixon daryosi bo‘yida (Amudaryodan 70 km shimolda, Shahrituz yonida)gi qadimiy shahar

9. Ishkentmish – Qunduz. Geografik hududi Afg‘onistonda.

So‘zlarni sharhlash jarayonida internet orqali joy nomlarining hozirgi joylashgan geografik o‘rni rasmini topib, namoyish etiladi yoki rasm-slayd shaklidan foydalaniladi.

Dars yakunida Mashrab hayoti va ijodini yorituvchi qo‘shimcha adabiyotlarning asosiy qismi (biz ularning 60 tadan ko‘prog‘ini ro‘yxatga oldik. 30 tadan ortig‘ini faol kitobxonlar yordamida jamladik)ni o‘quvchilarga taqdim etiladi.

2-, 3-soatdagi darslar Mashrab adabiy merosi, uning g‘azallari tahliliga bag‘ishlanadi. Bunda o‘qituvchi Mashrab ijodi A.Fitrat, I.Mo‘minov, I.Sultonov, V.Zohidov, P.Shamsiev, A.Hayitmetov, A.Abdug‘afurov, V.Abdullaev, I.Abdullaev, V.Rahmonov, J.Yusupov, M.Hoshimxonov, A.Xalilbekov kabi olimlar tomonidan keng tadqiq etilgani, uning lirikasi: g‘azal, mustazod, murabba’, muxammas, musaddas, musabba’, musammanlari “Mehribonim, qaydasan” (1990), “Mashrab. Devon”. (2019) nomi bilan (Nashrga tayyorlovchi Jaloliddin Yusufiy va so‘zboshi muallifi G‘aybulla as-Salom) nashr etilgani, Mashrab merosiga mansub “Mabdai nur” va “Kimyo” kabi falsafiy-badiiy asarlari topilib, kitobxonlarga tuhfa etilgani, shoir lirikasini o‘rganishda bir yoqlamalilikka yo‘l qo‘ymaslik kerakligini, ular dunyoni o‘ziga xos falsafiy-badiiy idrok etishning yorqin namunasi ekani, lirik qahramon – Mashrab siyrati bo‘rtib turishi (“Sig‘mamdir”, “Mashrabman”, “O‘zginam” g‘azallari misolida), ularning g‘oya va mavzu ko‘lami, ruhi, uslubi, badiiy xususiyatlari haqida ma’lumot beradi.

So‘ngra o‘quvchilar bilan birgalikda “Bu tani xokiniyu ruhi ravonini na qilay”, “Ishq mazhabiga taqvoyi toat chidayolmas”, “Malaksan yo bashar, yo huru g‘ilmonsan, bilib bo‘lmas”, “Hech kima ma’lum emas holi parishonim mening” deb boshlanuvchi g‘azallari ifodali o‘qiladi, lug‘at ustida ishlanadi, badiiy xususiyatlari tahlil etiladi, ularda insoniy dard va iztiroblarning falsafiy teranlik va chuqur mushohada asosida ifodalanganligi tushuntiriladi. Shoir g‘azallari bilan aytiladigan qo‘shiqlardan namunalar tinglanadi.

To‘rtinchi soatda “Qissai Mashrab” asari asosida suhbat o‘tkaziladi. O‘quvchilar shoir hayoti va ijodini qay darajada puxta tushunganliklari maxsus topshiriqlar asosida sinovdan o‘tkaziladi.

Dars oxirida Mashrab haqida yaratilgan asarlar: O.Xonazarovning “Yor dardida”, “Shoirning hamyurtlariga peshvoz chiqishi”, “Shoir orzusi”; H.Sa’dullaning “Mashrab”, D.Ergashevaning “Mashrabona”, E.Nurmatovning “Mangulik ko‘kida” kabi she’rlari; “Mehribonim sen o‘zing” to‘plami [8, 56], Shuhratning “Mashrab” romani [11, 128], Aziz Tursunning “Mashrab” lirik dramasi, Abdulla Jabborning “Ko‘rgoli keldim” dramatik dostoni haqidagi ma’lumotlar taqdim qilinib, ularni o‘qish tavsiya etiladi. Yana shuni ta’kidlash o‘rinliki, yuqoridagi manbalardan fanlararo integratsiya mazmunidagi sinfdan tashqari tadbirlarni o‘tkazishda o‘rinli va unumli foydalanish mumkin.

Shoir nomini abadiylashtirish bilan bog‘liq quyidagi dalillar keltiriladi:

1993-yilda Namanganda 50 gektar maydonda Mashrab bog‘i barpo etilgan. Shoir qadamjolari aks etgan binolar, Mashrab haykali, uning nomidagi uy-muzeyi bog‘ ko‘rkiga

o‘zgacha fayz bag‘ishlaydi. (Shu o‘rinda uy-muzey direktori, zahmatkash inson E.Oxunovning “Otashnafas shoir” nomli ko‘rgazma – bukleti

[9, Namangan, 2005] namoyish etilib, sharhlanadi);

1993-yili Mashrabning ustozi Mulla Bozor oxund majmuasi bunyod etildi va bu joy muqaddas ziyoratgohlardan biriga aylantirilgan;

Namangan shahridagi eng ko‘rkam kinoteatr, ko‘cha, maktab, madaniyat maskanlari Mashrab nomi bilan atalishi;

Namangan shahrining markazida, viloyatning otaxon bilim maskani- Namangan davlat universiteti qarshisida tashkil etilgan “Adiblar xiyoboni” dan o‘rin olgan Boborahim Mashrabning ko‘rkam haykali “Namangan adabiy muhiti” ning asoschisi sifatida qad rostlab turganligi;

NamDU axborot-resurs markazida Boborahim Mashrab hayoti va ijodini o‘rganish xonasi tashkil etilganligi;

“Boborahim Mashrab yurgan yo‘llardan” ekspeditsiyasini tashkil etish haqida izlanishlar olib borilayotganligi.

XULOSA. Bu kabi dalillar “Ming ma’nini bir nuqta bilan muxtasar” eta olgan so‘z san’atkoriga, o‘zida “bir shohu, bir shoir va bir devona”likni mujassamlantirgan komil inson shaxsiga hurmat, muhabbat, iftixor tuyg‘ularini tarbiyalashga xizmat qiladi. Shoir Habib Sa’dulla ta’biri bilan aytganda:

Otash nafasidan larzaga kelib,
Uni dorga ildi mash’um zamona.
Zamona ustidan hukmday bo‘lib,
Mangu yangrab qoldi tarona [10,122].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Бобораҳим Машраб. Кимё. – Наманган, 2000.

2. Бобораҳим Машраб. Мабдаи нур . – Т.: ЎзР. ФА. “Фан” нашриёти, 1994. – 314б.

3. Буюк сиймолар, алломалар. – Т.: Абдулла Қодирий номидаги Халқ мероси нашр., 1997. – 144 б.

4. Исматуллоҳ Абдуллоҳ. Машраб ҳикматлари. – Наманган, 2000.

5. Ислом. Энциклопедия: А-Ҳ (З.Ҳусниддинов таҳрири остида). – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2003. – 313 б.

6. Машраб. Девон. – Т.: “Шарқ”, 2019. – 464 б.

7. Машраб, Бобораҳим. Меҳрибоним, қайдасан: Ғазаллар, мухаммаслар... – Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1990. – 416 б.

8. Меҳрибоним сен ўзинг. Шеърлар, мақолалар ва ривоятлар. – Наманган, 2006. – 56 б.

9. Охунов Э. Оташнафас шоир. Кўргазма – буклет. – Наманган, 2005.

10. Саъдулла, Ҳабиб. Танланган асарлар. 1-жилд /Масъул муҳаррир Ҳ.Шарипов. – Т.: Шарқ, 2002. – 448 б.

11. Шуҳрат. Машраб: роман. – Тошкент: Адабиёт учқунлари, 2018. – 128 б.

12. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 5-жилд. Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2003. – 704 б.

13. Қиссаи Машраб. Нашрга тайёрловчилар: Сайфиддин Рафъиддин, Муҳаммад Ёқуб Халил, Шарофхон Жамолхон ўғли; – Т.: “Ёзувчи”, 1992. – 170 б. – (Халқ китоблари).

14. Халилбеков А. Наманган адабий гулшани. – Наманган, 2007. – 467 б.

15. Ҳомидий Ҳ., Маъмуров М. Наманган адиблари. – Т.: Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси “Фан” нашриёти, 2007. – 278 б.